
Fuqarolik ishlari bo'yicha Farg'ona tumanlararo sudi tomonidan "Ayollar daftari"ga kiritilgan xotin-qizlarga huquqiy yordamlar ko'rsatildi

"2022-2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi Farmonda "Ayollar daftari"ni yuritish orqali xotin-qizlar muammolarini hal etish tizimini yanada takomillashtirish belgilangan. Mazkur Farmon hamda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Oila va xotin-qizlarni tizimli qo'llab-quvvatlashga doir ishlarni yanada jadallashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Farmoni ijrosini ta'minlash maqsadida fuqarolik ishlari bo'yicha Farg'ona tumanlararo sudi raisi Ulug'bek Oripov tomonidan Farg'ona shahar hokimligi bilan hamkorlikda 1-sektor hududidagi mahallalarning xotin-qizlar bilan ishlash mutaxassisleri ishtirokida sayyor qabul o'tkazildi.

Sayyor qabul davomida sud raisi "Ayollar daftari"ga kiritilgan xotin-qizlarga huquqiy yordam ko'rsatildi hamda ularni qiziqtirgan savollariga tegishli javoblar berildi.

2022-07-15 16:46:33